



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QOBILIYATLARINING O'RNI

Mamatov Raxmonqul Omonovich

Samarqand viloyati, Urgut tumani,

№116-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Tel: +99893 090 60 37

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik-psixologik qobiliyatlarining o'rniga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *yosh avlod, barkamol etib voyaga yetkazish, shaxslararo munosabatlar, bolalaridagi inqoroz, oilada nizoli vaziyatlar, mustahkam oila, oila g'amxo'rliqi, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabat, mamlakat va millat, oila huquqi normalari, ma'naviy tarbiyalash, shaxsiy tavsifga ega bo'lish.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль педагогических и психологических способностей учителя в повышении эффективности образования, а также освещаются важнейшие социальные функции семьи: создание личности, воспитание детей, физическое и духовное развитие людей, их духовное объединение, обеспечение совместного ведения хозяйства, оказание взаимопомощи, обеспечение экономического и социального развития общества, улучшение демографических процессов.*

Ключевые слова: *молодое поколение, гармоничное воспитание, межличностные отношения, детские кризисы, конфликтные ситуации в семье, крепкая семья, семейная забота, важнейшие социальные функции семьи, семейные отношения, страна и нация, нормы семейного права, духовное воспитание, личностная идентичность.*

Abstract: *This article focuses on the role of the teacher's pedagogical and psychological abilities in increasing the effectiveness of education, and in turn, highlights the most important social functions of the family: creating a person, raising children, developing people physically and spiritually, uniting them spiritually, ensuring joint economic management, providing mutual assistance, ensuring the economic and social development of society, and improving demographic processes.*

Key words: *young generation, harmonious upbringing, interpersonal relationships, children's crises, conflict situations in the family, strong family, family care, the most important social functions of the family, family relations, country and nation, norms of family law, spiritual upbringing, personal identity.*



Mavzusining dolzarbligi. Jahon ta'lim tizimi jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatini ongli ravishda tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish kasbiy tayyorlash muhitini takomillashishi va yuksalishiga olib keladi. Chunki ilk o'spirinlik eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg'unlashib ketgan, ruhiy quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o'zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi jadal suroat bilan kechadigan davr bo'lib hisoblanadi.

Jahonda uzluksiz ta'lim tizimidagi o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatida innovatsion yondoshuv asosida o'qitish jarayonini tashkil etilishi, pedagog va o'quvchilarning psixologik qiyofasini tasniflash, ularning munosabat-laridagi psixologik muammolar, turli vaziyatlar (ham hayotiy, ham shaxsiy pozitsiya)ga ularning tayyorgarligi, bir-birlarini shaxs sifatida qabul qilishi, o'qituvchining o'zaro munosabatlardagi kasbiy bilimdonligi, o'z mavqei, axborotlar tizimini qabul etishdagi ham individual, ham guruhviy yondashuvlari, o'qitish jarayonidagi pedagog mahorati tadqiqotning bosh maqsadi sifatida gavdalanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgani ham bejiz emas. Davlatimiz rahbari alohida e'tirof etganlaridek, ta'limdagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Haqiqatdan ham maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yish talab etiladi. Davlatimiz rahbari har bir yig'ilishida qayta-qayta ta'kidlaganidek, maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, xususan Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda muvaffaqiyatlarini o'rganish, ta'lim sifatini oshirish, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilab bergan edi.

Ta'kidlash joizki, Ta'lim inspeksiyasi tomonidan barcha ta'lim vazirliklari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Uzluksiz ta'lim” konsepsiyalari loyihasida ko'plab mamlakatlar qatorida Finlyandiya tajribasidan ham foydalanish maqsad qilib olingan. Finlyandiya ta'lim sohasida yuqori natijalarga erishgan davlatlar sirasiga kiradi. Tadqiqotchilar finlar erishgan muvaffaqiyat omillarini uch guruhga ajratadi: o'qituvchilar salohiyati, ta'lim sohasidagi davlat siyosati va fin madaniyati,- dedi maktabning oliy toifali tarbiya va huquqshunoslik fani o'qituvchisi Mavluda jo'rayevna .- Finlyandiya ta'lim tizimi negizi “Har qanday o'quvchi yuqori natijaga erishishi mumkin, har qanday maktab u qayerda joylashganidan qat'iy nazar sifatli ta'lim berishi kerak” degan tamoyilga asoslanadi. Asosiy e'tibor ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilarga emas, balki o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga qaratiladi. Bizning maktabimizda ham bugungi kunda fin ta'lim tizimidagi metodlarni dars jarayonida keng qo'llash ishlari samarali davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini



tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o‘qituvchi kasbi masalasi. O‘qituvchi kadrlar kasbiy sifatlarning muhim jihatlari o‘rganish va uni ilmiy jihatdan asoslash mustaqillik yillarida pedagogika fanlarining ham ustuvor vazifasiga aylandi. Jumladan, keyingi yillarda mazkur muammo bo‘yicha B.N.Sirlijev, Yu.M.Asadov, Sh.G‘.Saparov, D.N.Arziqulov, S.Lashin, M.Yu.Maxkamova, N.D.Maxmudova, G.I.Maxmutova, G.N.Najmiddinova, R.U.Nurjonova, D.Sh.Olimova, M.Ochilov, B.X.Raximov, R.G‘.Safarova, M.Quronov, N.M.O‘rinova, S.Usmonov, T.G‘afforova, O.Q.Haydarovalarning amalga oshirgan tajribalari e‘tiborga loyiqdir. O‘qituvchilar kasbiy muhim sifatlarning turli psixologik jabhalarini o‘rganish keyingi yillarda psixologiya ham fanining keng tadqiqot ob‘ektiga aylanib bormoqda. Bu sohada M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, R.I.Sunnatova, G.Berdiev, B.T.Gapparov, S.X.Djalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.H.Muratalieva, X.A.Ruxieva, Sh.A.Eshmetov, E.A.Xidirov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

Xorij psixologlari A.Bandura, R.Uolters, M.Talen, K.Rodjers, A.Maslou, Gizela Leybouvi-Vif, Salomon Ash, M.Vudstok, D.Frensis, P.Lipman o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, o‘qituvchining professional pozitsiyasi, O‘qituvchining kasbiy muhim sifatlari va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalari, o‘ziga-o‘zi baho berish, hamkorlik faoliyati, o‘qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarning psixologik asoslari va bu jarayonga ta‘sir etadigan ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy va pedagogik-psixologik omillarning ahamiyatiga doir qimmatli ilmiy natijalar qayd etganligini qayd etish lozim.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.L.Rubinshteyn, V.M.Myasishchev, V.A.Slastenin, V.P.Kashirin, B.G.Ananev, N.F.Talizina, Ye.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy professional pedagogik shakllanishi, pedagoglarni kasbiy tayyorlashda o‘z kasbiga ijobiy munosabat, shaxsning o‘zini namoyon etishi, oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonining muammolari, chiqqan pedagogik qobiliyatlar konsepsiyasi, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlari, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari kabi masalalar borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishnaligini va samarali natijalarga erishganligini ta‘kidlash joiz.

Tadqiqot ishning maqsadi ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini ahamiyatini o‘rganish va tadqiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlarini va qobiliyatlarini aniqlash;



ta'lim samaradorligini ishirishda o'qituvchilarning pedagogik faoliyat motivatsiyasini tadqiq qilish;

ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining mahorati va qobiliyatini ta'sirini o'rganish;

ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha pedagog xodimlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ektini ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini ahamiyatini o'rganish jarayoni bo'lib, tadqiqotga Samardand shahri va Navoiy shahri umumta'lim maktab o'qituvchilari respondent sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini namoyon bo'lishi va ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish metodlaridan, shuningdek, «O'qituvchilar kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash» testi (Ryaxovskiy testi), «Pedagogik faoliyat motivatsiyasini aniqlash» testi (Orlov testi), «O'qituvchining mahorati va qobiliyatini aniqlash» metodikasi, «O'qituvchilarning ish faoliyati psixodiagnostikasi» metodikasi hamda tadqiqot natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik metodlaridan (Styudentning-t mezoni hamda K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti) foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlarini shakllanganlik darajasining ahamiyati haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Tadqiqot natijalari asosida o'qituvchilarning mahorati va qobiliyatlarni hamda pedagogik faoliyat motivatsiyasining psixologik mohiyatini chuqurroq anglay olish imkoniyati namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiq etilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar pedagogik psixologiya, psixologik xizmat, psixodiagnostika, tafakkur psixologiyasi, taraqqiyot psixologiyasi fanlaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, nazariy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan empirik tadqiqot dasturi, uning asosida shakllantirilgan va o'tkazilgan so'rovnomalar, test natijalari ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik qobiliyatlarning shakllanganligi va uning ta'lim sifatida tutgan ahamiyatini, o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro munosabatlarni shakllantirishga imkon beradi. Izlanish natijalari ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Buyuk kelajak bugundan boshlanadi avlodlar esa hozirgi yosh bolalardan boshlanadi. Ularni tarbiyalab voyaga yetkazish qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishda tarbiya muassasalari mahalla va oila ma'suldir. Yurtimizda yosh avlod kamolotiga katta e'tibor tufayli qobiliyatli va ijodkor o'quvchilar safi kengaymoqda. O'quv, mehnat odamlarning va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va qiziqishlar masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar odamning shunday psixologik xususiyatlardirki, bilim, ko'nikma, malaka shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarining o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar sifat va miqdor jihatidan ko'p bo'lishi



mumkin. O‘quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo‘lishini va binobarin, o‘quvchishaxsini qanday individual-psixologik xususiyatlari faoliyat tomonidan qo‘yilgan talablarni qay darajada, bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya’ni o‘quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarning qanchalik tez, yengil va mustahkam egallay olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi-maqсадga har turli yo‘llar bilan borishga imkon beruvchi «o‘zgaruvchan miqdor» to‘plami sifatida faoliyat muvaffaqiyatini taminlovchi inson psixologik xususiyatlarini murakkab yigindisi sifatida ko‘rinadi. Bir xususiyatlarni o‘rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari bor, buni odam o‘zida chidam va qat’iylik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin. Pedagog va psixolog Skolovyanskiy ko‘r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyati emas, balki adabiy qobiliyat ham namoyon bo‘lishiga erishgan. Bir qobiliyatni boshqa bir qobiliyat bilan boshqarish yordami bilan to‘ldirish xususiyati har bir odam oldida tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

F.A.Gallning fikricha odamning hamma qobiliyatlari «aql» va «qobiliyat» sifatlari miya yarim sharlarida o‘zining maxsus qat’iy markazlari mavjud ekan, ya’ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli kismlarining miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Shuning uchun odamning «kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do‘mboqchalarini shunchaki paypaslab ko‘rish orqali ko‘p odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo‘ladi. Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo‘lib, nazariy qobiliyatlar-ma’lum, mantiqiy qobiliyatlar esa amaliy harakatlarga moyillikda namoyon bo‘ladi.

O‘quv qobiliyatlari bilim, ko‘nikma va malakalarni izlashtirish shaxs sifatlarining shakllanishi, pedagogik ta’sirlar samaradorligining ortishida ijobiy rol o‘ynaydi. Ijobiy qobiliyatlar moddiy va ma’naviy madaniyat asarlari yaratish yangi goya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy o‘zining kelajak taraqqiy zonasini belgilash «metodi» deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning aniq faoliyatidan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Qobiliyatlarining tarkib topishi esa ta’lim va tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon qilishdir.

Maxsus qobiliyatlar esa ma’lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko‘rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo‘yicha ishlayotgan ikki kishida o‘ziga xos maxsus qobiliyatlar bo‘lmasa bo‘lmaydi. Har bir qobiliyat o‘zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo‘lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko‘rgazmali obrazlar, estetik xislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa — pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o‘zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalalar kiradi. Xuddi shunga o‘xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Psixologik intellekt testlari o‘quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, umumiy aqliy qobiliyati va o‘zi tanlagan soha bilan shug‘ullana olish layoqati, imkoniyatini aniqlab beradi.

Ta’lim va psixologiya o‘zaro bog‘liqdir. Psixologlardan biri shunday deydi:- “ta’lim psixologiyasini bilmagan holda o‘qituvchi qanday dars berishi mumkinligini tushunmayman”. Chunki ta’lim berayotgan shaxs ta’lim oluvchini psixologik xususiyatlarini va uni xarakteri haqida anglmasa, bilmasa yoki uni his qilmasa ta’lim berish jarayonida o‘quvchi bilan turli nizolar va tushunmovchiliklar keltirib chiqishiga sabab bo‘ladi. Psixologiya ta’lim ruhini o‘zgartirdi va u sinfda o‘rganishga yangi ma’no bag‘ishlaydi. Psixologiya ta’limga har bir bola turli xil aqliy qobiliyatga ega va har xil sur’atda o‘rganadigan individual farqlar nazariyasini beradi.

O‘quvchi umumiy o‘rta ta’lim fani bo‘yicha imtihonda «besh» baho olsayu, shu soha bo‘yicha intellektual yoki ijodiy qobiliyati bo‘lmasa, uning keyingi faoliyati unumdorligi past bo‘ladi. Oxir oqibatda bunday kishi tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun ham hech qanday foyda keltirmaydi. Yana shuni qayd etish lozimki, iqtidorlilikni faqat shaxsning aqliy imkoniyati sifatida tasniflash uni tadqiq etishda bir tomonlamalikka olib keladi. Chunki iqtidorlilik nafaqat aql, balki shaxs tuzulmasining barcha komponentlarining uyg‘un va yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Demak, iqtidor faqat aqlga emas, balki shaxsga tegishli. Iqtidorli kishi deganda biz har tomonlama rivojlangan shaxsni nazarda tutamiz. Kimdir o‘z qobiliyati bilan, boshqa birov o‘z xarakteri va tashqi olamni o‘ziga xos idrok etishi bilan iqtidorli bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda biz o‘z tengdoshlaridan rivojlanishda o‘zib ketgan bolalarni iqtidorli deymiz. To‘g‘ri, bunday bolalar qobiliyatli, lekin shunday bolalar ham borki, ular noandoza fikrlashi, voqea va hodisalarni g‘ayrioddiy talqin etishi bilan iqtidorli hisoblanadi. Bunday bolalar ko‘pincha tarbiyachilar, o‘qituvchi va otalar uchun «qiyin» va ularni tarbiyalash ham og‘ir kechadi. Ayniqsa o‘qituvchilar bunday bolalar hatti-harakatini baholashda, uning boshqa bolalarga o‘xshamaydigan g‘ayrioddiy harakatlarini qabul qilishda qiynalishadi. Yosh davrlari davomida shaxs rivojlanishi bilan iqtidorning rivojlanishi uyg‘un kechishini ta’lim va tarbiyada albatta inobatga olish lozim bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar:

Xulosa tarzida, hozirgi zamonda ta’lim psixologiyasi ta’limning asosidir. Psixologiya ta’lim jarayonining barcha sohalarida ta’limga ta’sir qiladi. Ko‘p yillar davomida olimlar ta’lim psixologiyasining maqsadlari va bu sohaning o‘qitish va o‘rganish amaliyoti uchun dolzarbligini ta’kidladilar (Alexander 2004; Berliner, 1993; Brophy 1974; Woolfolk Hoy 2000). O‘qituvchi uchun o‘z o‘quvchilarini aqliy qobiliyatlariga qarab o‘qitish juda zarur. Bunda o‘qituvchiga pedagogik psixologiya yordam beradi. Bu o‘qituvchiga qayerda va qanday qilib o‘rgatish imkonini beradi. XXI asr muammolarini hal qilish uchun o‘qituvchilar qanday ta’lim berishni va o‘quvchilarda muamoni yechish, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi, ta’lim sifatini oshiruvchi zarur omillar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020 yil dekabr.



2. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar forumidagi va ma’naviyat haqida” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
 3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat. 1998. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №5-6, ilova.
 4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Rasmiy nashr. 2003. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, №2-ilova; 1996 yil, 11-12-son.
 5. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000. – 446 b.
 6. Nechayeva A.M. Semeynoye pravo. Kurs leksiy. – M.: Yurist. 1998. – 336s.
 7. Otaxo‘jayev F.M. Oila huquqi. – T.: TDYuI. 2005. – 280 b.
 8. Rustamova A., Fozilova B. Oilashunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Buxoro “BPK” 2005 y., 80-85 b.
 9. Qodirov O.S. O‘smirlarda huquqbuzarliklarini oldini olishning samarali usullari. // O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари. – Toshkent. - 2023. №1/12. - B. 162-164.
 10. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.- 250 b.
 11. Andreyeva G. M. Sosialnaya psixologiya: Ucheb. dlya vuzov. M.: Aspekt Press, 2000. - 376 s.
 12. A.N.Volkova. Metodicheskiye priyemy diagnostiki suprujeskix otnoshenii.M Rech 2005 g.
- Internet saytlari:
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/>
 14. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
 15. <https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>